



Tadqiqot uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



№23

25 декабрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
25 - ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
23-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ- 25**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
23-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART- 25**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 23-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Meliboyeva Feruzaxon Solijonovna FARG'ONA VILOYATI SUV OMBORLARINING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI.....	7
2. Muzaffarov Dilshod Ahmad o'g'li HOZIRGI DAVRNING GLOBAL MUAMMOLARI.....	9
3. Boltayeva Dilnoza Shonazarovna GEOGRAFIK XARITALAR VA XARITA ANDAZALARI	10



ГЕОГРАФИЯ

FARG'ONA VILOYATI SUV OMBORLARINING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI.

*Meliboyeva Feruzaxon Solijonovna
Rahimova Diyora Rahmatjon qizi
3 kurs talaba (Qo`qon DPI)*

Hozirgi xalq xo'jaligining ko'p tarmoqli sistemasida suv resurslaridan foydalanish butunlay yangicha asosga o'tdi. Sug'orma dehqonchilikda ham, sanoatda ham, maishiy hizmat va transportda ham suvdan foydalanishda uning muhim tomoni shundan iboratki, xo'jaliklar, korxonalar, tashkilotlar, fermer xo'jaliklari har bir foydalanilgan m³ suv uchun ma'lum tartibda va ta'rifda pul to'lamoqdalar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir to'langan pul miqdori ishlab chiqarishda foydalanilgan tabiiy resursning qiymatidan va yetishtirgan yoki ishlab chiqarilgan mahsulotning tan narxidan kelib chiqib belgilanadi.

Suv ham tabiiy resurs hisoblanib, undan foydalanish bilan bo'g'liq barcha tadbirlar uni muhofaza qilish bilan bog'liq tadbirlarga asoslangan bo'lishi kerak. Suvlarni muhofaza qilish avvalo, ulardan tejab-tergab foydalanishga bo'g'liqdir. Ayniqsa, foydalanilmay oqib yotgan suvni to'plash, vegetatsiya davrida ekinlarni suv bilan ta'minlashga to'liq imkon yaratish uchun ularni suv omborlarida saqlash, to'plash va foydalanish katta ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, daryolardagi suv miqdori yil davomida mavsumdan mavsumga va u yildan bu yilga o'zgarib turadi. Respublikamizda katta va kichik daryolarning ko'p bo'lishiga qaramay ayni vaqtda ularning suvlaridan unumli foydalanishga erishish faqat suv omborlari qurish orqali amalga oshiriladi. Suv omborlari- sun'iy suv havzalari bo'lib, suvlarni to'plash, turli maqsadlarda foydalanish va daryo suvlarini boshqarilishi mumkin bo'lgan suv havzalari, texnogen landshaftlarning gidrotexnik inshootlari hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda respublikamizda 25 dan ortiq suv omborlari bo'lib, dastlabki suv ombori Zarafshon vodiysida, Kosonsoy va Sirdaryoda qurilgan edi (**Kattaqo'rg'on**, **Kosonsoy** va **Farxod** suv omborlari). Respublikamizdagi suv omborlari ayni vaqtda xalq xo'jaligimizning ko'pgina ratmoqlarini suv bilan ta'minlash bilan birgalikda gidrotexnik inshoot sifatida o'zining tabiiy muhitga ta'sirini ham ko'rsatmoqda. Suv omborlarining atrof-muhitga ta'siri yo'nalishlari ham ko'p to'planmoqda.

Suv omborlarining xo'jalik iqtisodiy ahamiyatini belgilashda ularni yuqorida keltirilgan holatlari katta rol o'ynaydi. Lekin ulardan to'g'ridan-to'g'ri sug'orish maqsadlarida foydalanish orqali keltirgan foydali tomonlari ularning iqtisodiy ahamiyatini ko'rsatadi. Viloyatimizda Karkidon suv omborining ishga tushirilishi bilan viloyatimizning Quva, Toshloq, Oltiariq tumanlarida 100 ming ga. ga yaqin yerlarni sug'orish ta'minoti yaxshilandi. Ushbu suv ombori Isfayramsoy daryosiga qrilgan bo'ib, maydoni 9,5 km², suv hajmi esa 218m³ (respublikamizda maydoniga ko'ra suv omborlari ichida 14-o'rinda turadi) ni tashkil etadi. Bu hududlarni suv bilan ta'minlovchi Janubiy Farg'ona kanalini suv sig'imi 25 dan 60m³/sek. ga ortdi. Kanalni suv sig'imini orttirish uchun uni ikki tomonidan kengaytirildi. Natijada kanal terassasi bo'ylab mustahkamlangan shag'alli jinslar ochilib qoldi va kanal suvining filtrlanish darajasi kuchayib suv yo'qotilishi 1,5-2 barobarga ortib ketdi. Suv ta'minoti yaxshilanishi bilan Quva tumanida sug'orish normalari ham ortdi.

Karkidon suv omborining atroflarida dam olish maskanlari, rekratsion hududlar tashkil etildi. Quva tumani va Farg'ona shahridagi sanoat korxonalari, tashkilotlarga ma'lum miqdorda yer ko'rsatib berildi. Va ular suv ombori zonasidan dam olish maskanlari qurib bitkazildi.

Farg'ona viloyatidagi yana bir suv ombori –Qo'rg'on tepa suv omboridir. Ushbu suv ombori kichik suv omborlari guruhiga mansub bo'lib, Oltiariq tumanining janubidagi adirlar mintaqasida Farg'ona-Qo'qon avtomobil yo'lidan 2 km janubroqda, Oltiariqsoy vodiysida qurilgan.

Ushbu suv omboriga Shohimardonsoyning irmog'i Oltariqsoy va Burbaliqsoydan suv olinadi.



Qo'rg'ontepa suv ombori 1-navbat (Araptepasoy) va 2-navbat (Kengko'lsoy) ga bo'linadi. Suv ombori qurilishi 1975-yilda boshlangan bo'lib, Araptepasoy 1978-yilda, Kengko'lsoy 1981-yilda qurib bitkazilgan. Araptepasoy va Kengko'lsoy suv omborlarini ajratib turuvchi tepalik 40-60 metrli balandlikka ega. Suv ombori kotlovinasini yumshoq shag'alli jinslar, qumloq jinslar tashkil qiladi. Suv omborining to'la suv sig'imi 30 mln m³ ga teng. Shundan sel va favqulotda holatlar uchun ham zahira qoldiriladi. Sel oqimini asosiy qismi Burbaliqsoy o'zanidan keluvchisuvlar tashkil etadi. Suv ombori garchand katta maydonga ega bo'lsada, Oltariq tumanidagi 3 ming ga ekin maydonlarini suv bilan taminlashga hizmat qiladi. Suv omboridagi suvlar faqat ekin maydonlarini sug'orish uchun sarflanadi.

Janubiy Farg'ona Magistral kanali boshqarmasi topshirig'iga asosan 2013 yil Keng-ko'l suv omboriga jami 10, 5567 mln.m³ hajmda suv quyildi. Havzada shimilib qaytib chiqqan suv miqdori 0,5197 mln.m³ ni, sizish va bug'lanish hisobiga 7,5528 mln m³ hajmda suv yo'qotildi (1-jadval) yoki 79 % ni tashkil etdi. To'g'onni nazorat qilish maqsadida 20- dona tik quduqlar (pe'zometirlar) o'rnatilgan. Ushbu yilda suvdan foydalanish holati 21% ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va Suv xo'jaligi Vazirligi va Birlashgan Dispetcherlik Markaziga ega bo'lgan Farg'ona vodiysi Magistral Kanallari tizimi boshqarmasining Janubiy Farg'ona Magistral kanali boshqarmasi topshirig'iga asosan 2013-yilda jami -47, 6053mln m³ hajmda suv quyildi. Shundan ho'jaliklarga berilayotgan suvlar -36,2988 mln m³ ni, to'g'on ortidan (zovur) chiqayotgan suv 2,05 mln m³, jami chiqarilayotgan suvlar 38,3488 mln m³ ni, havza ichida yo'qolgan suvlar esa 9,5585 mln m³ yoki suv yo'qolishi 20 % ni tashkil etdi. Suv omboridan foydalanish holati 80 %ni tashkil etdi

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslan holda shuni aytishimiz mumkinki, suv omboridan foydalanish holati Keng-ko'lsoy suv omborida-21%ni, Araptepa suv omborida esa-80 % ni tashkil etdi. O'rtacha suv omboridan foydalanish holati -50,5% ni tashkil etmoqda.



HOZIRGI DAVRNING GLOBAL MUAMMOLARI

Muzaffarov Dilshod Ahmad o'g'li
Navoiy viloyati, Qiziltepa tuman 35-maktab
geografiya fani o'qituvchisi
Tel: +998913366793

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi davrning asosiy muammolari va ularning yechimi haqida ma'lumot berilgan.

Tayanch tushunchalar: atrof-muhit, tabiiy ofatlar, demografik muammo, ekologik muammo, urush va tinchlik.

Insoniyat jamiyatining taraqqiyoti hechqachon va hechqayerda oson, beto'siq kechmagan. Har doim va hamma davrlarda jamiyat oldida muayyan muammolar ko'ndalang bo'lib turgan. Bular, bir tomondan, tabiat ofatlarining natijasi o'laroq namoyon bo'ladigan yer silkinishlari, suv toshqinlari, qurg'oqchilik, quyosh radiatsiyasi o'zgarishi bilan bog'liq turli epidemik kasalliklar va hokozolar bo'lsa, ikkinchi tomondan, insoniyat faoliyati natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy –madaniy hayotga oid bo'lgan antropogen muammolardir. Jahon miqyosida jarayonlari tahlili shunu ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda, insoniyat uchun o'tkir, dolzarb bo'lib turgan global muammolar quyidagilardan iborat:

a) Yer yuzida tinchlikni ta'minlash va yalpi qirg'in urushlarining oldini olish (urush va tinchlik muammosi);

b) atrof-muhitni samarali muhofaza qilish (ekologik muammolar);

d) aholi sonining orta borishi bilan ishlab chiqarish rivojlanishi mutanosibligiga erishish (demografik muammo)

e) Yer yuzi aholisini zarur oziq –ovqat va energiya manbalari bilan ishonchli ta'minlash;

f) ochlik-qashshoqlik va qoloqlikni tugatish uchun yuksak rivojlangan va ularda keyinda qolgan mamlakatlar o'rtasidagi keskin farqni bartaraf etish;

g) xavfli kasalliklarni tugatish;

h) inson ma'naviy-axloqiy muhiti softligini ta'minlash;

Bu muammolarning har biri u yoki bu darajada ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy huquqiy nuqtayi nazardan ilmiy tahlil etilgan. Kelib chiqishi, chuqurlashib borishi, ko'lami va hal etilishining murakkabligi jihatlariga ko'ra, ularni uch guruhga ajratish mumkin.:

Birinchisi, mavjud ijtimoiy tuzumning tabiati, turli mintaqa davlatlarning xilma –xil manfaatlarini taqozo etilgan muammolar.

Ikkinchi guruhi, -inson kelib chiqadigan muammolari.

Uchinchisi, „jamiyat –tabiat“ tizimi doirasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan muammolar

Global muammolarning turlari o'zaro qanchalik farqlansada, bu sohalaridagi umumiylik dastavval butun insoniyatning hayoti, shart –sharoitlari, imkoniyatlari va istiqboli masalalaridir.

Ikkinchi tomondan ular u yoki bu darajada hozirgi davrning bosh omili- fan-texnika inqilobi bilan aloqadordir, ya'ni uning oqibatidir. Bizning davrimizda fanning rivojlanish sur'atlari g'oyat

Kattadir. Fanda erishilgan kashfiyotlar tezda yangi texnika vositalari yaratishni ta'minlasa, o'z navbatida texnika rivojlanishi ham fanda yangi o'zgarishlar sodir etishga jiddiy turtki bermoqda.

Bularning natijasi o'laroq, erishilgan kashfiyotlar muayyan maqsadlarga xizmat qilmoqda. Bu esa global muammolarning yanada o'tkir, dolzarb bo'lib turishiga olib kelmoqda.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, yerdagi hayotni saqlab qolishning asosiy sharti –yalpi qirg'in urushlarning oldini olish hamda sayyoramizning bir qancha mintaqalari xalqlari qoloqligini tugatib, insoniyat jamiyati mutanosib rivojlanishiga erishish va ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish insoniyat kuch g'ayratlarini birlashtirish lozim boladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi 9-sinf darslik,„ Jahon mamlakatlari geografiyasi,„ ilmiy metodik qo'llanma.


GEOGRAFIK XARITALAR VA XARITA ANDAZALARI

Boltayeva Dilnoza Shonazarovna
Xorazm viloyati Yangiariq tumani
22-son maktab geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yer yuzi tuzilishini o'rganishda geografik xaritalarning ahamiyati va xarita andazalari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: xarita, yer yuzasi, andaza, globus, obyekt, burchak, meridian.

Geografiyani globus va dunyoning tabiiy xaritasiz tasavvur qilish qiyin. Globus Yerning mod-eli ekanini bilamiz. Globusda Yer yuzasi — quruqliklar, okeanlar, dengizlar, orollar sayyoram-izda aslida qanday shaklda bo'lsa, deyarli shunday shaklda, lekin juda kichraytirib tasvirlangan. Tabiatdagi obyektlar judakichraytirib tasvirlanganda ko'p narsalarni ko'rsatish mumkin emas. Shu sababli Yer yuzini, undagi geografik obyektlarni tasvirlash uchun geografik xaritalardan foydalaniladi. Geografik xaritalar Yer yuzidagi geografik obyektlarni tasvirlashning asosiy usuli hisoblanadi. Biroq geografik xaritalarda Yerning qavariq yuzasi tekis yuzada tasvirlanadi. Buning oqibatida geografik xaritada Yer qavariq yuzasining ayrim qismlarini cho'zib, ayrim qismlarini qisqartirib tasvirlashga to'g'ri keladi. Shuning uchun globus va xaritalardagi geografik obyektlarning qiyofalari bir-biridan farq qiladi.



Qavariq Yer yuzasini tekis yuzada tasvirlash uchun xarita andazalaridan foydalaniladi. Xarita andazalari sayyoramizning qavariq yuzasini tekis yuzada tasvirlashning matematik usullaridir. Yerning qavariq yuzasi tekis yuzaga tushirilayotganda tasvirda uzilishlar ro'y beradi. Uzilishlarni to'ldirish uchun, odatda, xaritadagi tasvirlarni cho'zishga to'g'ri keladi. Buning oqibatida burchaklar, chiziqlar uzunligi, maydonlar, obyektlarning shaklida xatoliklarga yo'l qo'yiladi. Yerning qavariq yuzasini tekis sathga—xaritaga tushirish chog'ida ana shunday xatoliklardan birontasini kamaytirishga yoki yo'qotishga harakat qilinadi. Shu maqsadda turli xil xarita andazalaridan foydalaniladi. Xarita andazalari, asosan, uch xil bo'ladi:

1. Teng burchakli andazalar. Bunday andazalarda tuzilgan xaritalardagi burchaklar globusdagi, ya'ni joydagi burchaklarga teng bo'ladi. Teng burchakli andazalar asosida tuzilgan xaritalarda yo'nalishlarni aniqlash qulay, biroq maydonlar va masofalarni tasvirlashda xatolarga yo'l qo'yiladi.

2. Teng maydonli yoki teng hajmli andazalardan foydalanilganda materiklar, davlatlar, dengizlar, orollar va boshqalarning maydonlari xatosiz tasvirlanadi. Lekin burchaklar, shakllarni tasvirlashda ancha xatoliklarga yo'l qo'yiladi. Teng maydonli xaritalardan geografik obyektlar maydoni o'lchanadi.



3. Ixtiyoriy andazalar asosida tuzilgan xaritalarda burchaklar ham, maydonlar ham xatoliklar bilan tasvirlanadi, lekin xatolik kamroq bo‘ladi. Ixtiyoriy andazalar orasida teng masofali andazalar boshqalaridan ko‘ra ko‘proq ishlatiladi. Bunday xaritalarda uzunlik masshtabi bir meridian (odatda, o‘rtadagi) yoki bir paralleldagina saqlanadi. Qavariq Yer yuzasining meridianlar va parallellar to‘rini tekis yuzaga (qog‘ozga) tushirishda yordamchi geometrik sirtlardan, xususan, silindr, konus, tekislik va boshqalardan foydalaniladi.

Xarita andazalari foydalanilgan yordamchi geometrik sirtlarning turiga qarab konussimon, silindrsimon, azimutli andazalarga bo‘linadi. Silindrsimon andazalarda tuzilgan xaritalarda meridianlar bilan parallellar bir-biri bilan 90° li burchak ostida kesishadigan to‘g‘ri chiziqlardan iborat to‘r hosil qiladi. Bunday andazalar yordamida, ko‘pincha, dunyo xaritalari tuziladi. Materiklar, ayrim davlatlar, asosan, konussimon andaza yordamida tasvirlanadi. O‘rta Osiyo va O‘zbekiston xaritalari konussimon andazadan foydalanib tuzilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. P.G‘ulomov va boshq. Geografiya. Maktablar uchun 7-sinf uchun darslik.
2. Internet saytlari.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(25-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000